Sana: “__” _____ 201__-yil. Sinflar: 2-’’ _____”. O‘qituvchi: _____

MAVZU: Sanoq va tartibni bildirgan so’zlar

DARSNING MAQSADI:

a) ta’limiy: o’quvchilarga sanoq va tartibni bildirgan so’zlar haqida ma’lumot berish;
b) tarbiyaviy: o’quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ona tili faniga muhabbat uyg’otish, oila va uning a‘zolariga hurmat bilan munosabatda bo’lishga o’rgatish;
d) rivojlantiruvchi: O`quvchilarning lug`at boyligini oshirish, og`zaki nutqini o`stirish. Yozma nutqini rivojlantirish va imlo malakalarini oshirish . Mustaqil fikrlash qobiliyatini o`stirish orqali o`z-o`zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirish.
Mavzuga oid shakllantiriladigan kompetensiyalar:
a) tayanch kompetensiya(lar): TK1, TK2;
b) fanga oid kompetensiya(lar): FK1.
Dars turi: yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi.
Dars uslubi: an’anaviy.
Dars jihozlari: darslik, slaydlar, bukletlar, tarqatma materiallar, ko‘rgazmali qurollar (audio, video, fotolavhalar, jadvallar) jamlanmasi.

DARS REJASI		
№	**Darsning tarkibiy qismi (bosqichlari)**	**Ajratiladigan vaqt (reglament)**
1	Tashkiliy qism	5 daqiqa
2	Ma’naviyat daqiqasi	
3	O‘tilgan mavzuni takrorlash	5 daqiqa
4	Yangi mavzuni tushuntirish	25 daqiqa
5	Mustahkamlash	5 daqiqa
6	O‘quvchilarni baholash	5 daqiqa
7	Uyga vazifa berish	

DARSNING BORISHI:

I.Tashkiliy qism: O‘quvchilar bilan salomlashib, sinf xonasining darsga tayyorlik darajasini tekshirish, davomatni aniqlash.
II.O’tilganlarni takrorlash: Og’zaki savol-javob o’tkazish va uyga berilgan vazifani tekshirish.

III.Yangi mavzu bayoni:

254-mashq. Gaplarni o‘qing.
Tok ko‘chati o‘tqazilgandan so‘ng uchinchi yili hosilga kiradi. Yetilgan tokdan yuz kilogrammgacha uzum hosili olinadi. Bir bosh uzum sakkiz yuz gramm bo‘lishi mumkin. Uzumning husayni, qirmiska kabi navlari uch-to‘rt oy buzilmay saqlanadi.

Qan c h a ? , n e c h a n c h i ? so‘roqlariga javob bo‘lgan so‘zlarni o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga namunadagidek yozing.
N amu n a : (N e c h a n c h i ?) ***Uchinchi yili,*** (qa nch a ?) ***yuz kilogramm.***

hasanboy.uz

255-mashq. Gaplarni o‘qing. N e c h a n c h i ? va qancha? so‘roqlariga javob bo‘lgan so‘zlarni aniqlang.
Abbos o‘n beshinchi maktabning ikkinchi sinfida o‘qiydi. Bu sinfda yigirma olti o‘quvchi ta’lim oladi. Ulardan o‘n bitta o‘quvchi a’lochi.

Ne chanchi ? va qancha? so‘roqlariga javob bo‘lgan so‘zlarni o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga ko‘chiring.
Namuna: (Nechanchi?) ***O ‘n beshinchi maktab, … .***

Shaxs va narsaning sanog‘ini bildirgan so‘zlar nechta?, q ancha? so‘roqlariga javob bo‘ladi.
Narsa va shaxsning tartibini bildirgan so‘zlar nechanchi ? so‘rog‘iga javob bo‘ladi.

256-mashq. Topishmoqlarni o‘qing. Javoblarini toping.

Bir chuqurda ming chuqur,
Chuqurni igna cho‘qir.
Qirq ko‘ylagi bor,
Bir tugmasi yo‘q.

Yozing. Narsalar sanog‘ini bildirgan so‘zlar tagiga to‘lqinli chiziq chizing.
Topishmoqlar javobini topishda sizga qaysi so‘zlar yordam berdi? Shu so‘zlar qaysi so‘roqqa javob bo‘lyapti?

IV.Mustahkamlash: Darsning ushbu qismida o‘quvchilar dars yakunida quyida berilgan topshiriqlar va savollarga javob beradilar:

V.O‘quvchilarni baholash: O‘quvchilar darsdagi ishtirokiga ko‘ra belgilangan baholash mezonlari asosida baholanadilar. Baholar o‘quvchilarning kundalik daftarlarida va sinf jurnalida aks ettiriladi. Darsda faol ishtirok etmagan o‘quvchilar bilan ishlanadi.

VI.Uyga vazifa: 257-mashq. Sonlarni qo‘shib o‘qish orqali so‘z ma’nosini chiqaring.
O‘quvchi **2** lanmay javob berdi.
Kuch **1** likdadir.
Vatan haqida **4** liklar o‘qidik.

Yozing. Shunga o‘xshash boshqotirmalar tuzishga harakat qilib ko‘ring.

Hasanboy.uz

Sana: “__” _____ 201__-yil. Sinflar: 2-’’ _____”. O‘qituvchi: _____

MAVZU: Necha?, Qancha? yoki Nechanchi? so’roqlariga javob bo’lgan so’zlar

DARSNING MAQSADI:

a) ta’limiy: o’quvchilarga Necha?, Qancha? yoki Nechanchi? so’roqlariga javob bo’lgan so’zlar haqida ma’lumot berish;

b) tarbiyaviy: o’quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ona tili faniga muhabbat uyg’otish, oila va uning a‘zolariga hurmat bilan munosabatda bo’lishga o’rgatish;

d) rivojlantiruvchi: O`quvchilarning lug`at boyligini oshirish, og`zaki nutqini o`stirish. Yozma nutqini rivojlantirish va imlo malakalarini oshirish . Mustaqil fikrlash qobiliyatini o`stirish orqali o`z-o`zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirish.

Mavzuga oid shakllantiriladigan kompetensiyalar:

a) tayanch kompetensiya(lar): TK1, TK2;

b) fanga oid kompetensiya(lar): FK1.

Dars turi: yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi.

Dars uslubi: an’anaviy.

Dars jihozlari: darslik, slaydlar, bukletlar, tarqatma materiallar, ko‘rgazmali qurollar (audio, video, fotolavhalar, jadvallar) jamlanmasi.

DARS REJASI		
№	**Darsning tarkibiy qismi (bosqichlari)**	**Ajratiladigan vaqt (reglament)**
1	Tashkiliy qism	5 daqiqa
2	Ma’naviyat daqiqasi	
3	O‘tilgan mavzuni takrorlash	5 daqiqa
4	Yangi mavzuni tushuntirish	25 daqiqa
5	Mustahkamlash	5 daqiqa
6	O‘quvchilarni baholash	5 daqiqa
7	Uyga vazifa berish	

DARSNING BORISHI:

I.Tashkiliy qism: O‘quvchilar bilan salomlashib, sinf xonasining darsga tayyorlik darajasini tekshirish, davomatni aniqlash.

II.O’tilganlarni takrorlash: Og’zaki savol-javob o’tkazish va uyga berilgan vazifani tekshirish.

III.Yangi mavzu bayoni:

258-mashq. Gaplarni o‘qing. Nuqtalar o‘rniga mazmunga mos so‘zlarni qo‘yib yozing. Bir yilda (n e c h t a ?)... fasl bor. Har faslda (n echa?)... oy bor. Bir oyda (qancha?) ... hafta bor. Har haftada (qancha?) . kun bor. Bir kecha-kunduz (necha?) ... soatdan iborat. Bir soat (necha?) ... daqiqa. Hozir (n e c h a n c h i ?)... oy. Bugun oyning (nech anchi?) ... kuni.

Narsalarning sanog‘i va tartibini bildirgan so‘zlarni tegishlicha belgilang.

nasanboy.uz

259-mashq. Maqollarni o‘qing. Mazmunini tushuntirishga tayyorlaning.

Egri ish ellik yildan keyin ham bilinadi.
Ilmsiz bir yashaydi, ilmli ming yashaydi.
Bir mayizni qirq kishi bo‘lib yebdi.

Yozing. Sanoqni bildirgan so‘zlarni belgilang.

260-mashq. She’rlarni o‘qing. Sanoqni bildirgan so‘zlarni aniqlang.

O‘nta qo‘l egolmas boshni,
Chirillatar yuz kilo toshni.
Yo‘lini topsa edi To‘lanboy
Ko‘tarardi o‘zi quyoshni.

Yong‘in Mirzo

Qirq og‘ayni botirlar
Qaydan kelayotirlar?
Balki qirq kunlik yo‘ldan
Yeldek yelayotirlar.

Boborahim Omonov

Sanoqni bildirgan so‘zlarga so‘roq bering va o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga yozing.

261-mashq. O‘qing.

O‘ZBEKISTON QIZIL KITOBI

O‘zbekiston Qizil kitobining yangi nashri chop etildi. Kitobga 184 turdagi hayvonlar kiritildi. Botanika qismiga 324 turdagi o‘simliklar yozildi.

Ular yo‘qolib ketish xavfi ostida qolgandilar. Masalan, Toshkent viloyatidagi bir qishloqda 150 yillik nok daraxti o‘sar ekan.

Undan 500 kg atrofida hosil yig‘ib olinadi. Nokning bu noyob turi ham ushbu kitobga kiritilgan. O‘simlik va hayvonlarni asrash hammamizning burchimizdir.

S avo lla rga javo b bering.

1. Qizil kitob nima ekanligini bilasizmi?
2. Siz o‘simlik va hayvonlarga qanday muno sabatdasiz?

Berilgan raqamlarni so‘z bilan yozing.

Yozing. Sanoqni bildirgan so‘zlarni so‘roq berib aniqlang, tagiga chizing.

IV.Mustahkamlash: Darsning ushbu qismida o‘quvchilar dars yakunida quyida berilgan topshiriqlar va savollarga javob beradilar:

V.O‘quvchilarni baholash: O‘quvchilar darsdagi ishtirokiga ko‘ra belgilangan baholash mezonlari asosida baholanadilar. Baholar o‘quvchilarning kundalik daftarlarida va sinf jurnalida aks ettiriladi. Darsda faol ishtirok etmagan o‘quvchilar bilan ishlanadi.

VI.Uyga vazifa: 262-mashq. O‘ qing.

Yong‘oq qoqvoldim,
Mag‘zini chaqvoldim:
Dadamga — o‘ttizta,
Ayamga — to‘qqizta,
Bobomga — yetmishta,
O‘zimga to‘rt-beshta

Anvar Obidjon

kasanboy.uz

Ushbu konspektning ***to'liq va fondagi yozuvlarsiz*** variantini olish uchun

+998946281992 telegram raqamiga yoki
@mahmudov24 telegram adresiga xabar yozing

Narxi 20 000 so'm

To'lov FAQAT **click, payme** yoki **paynet*** orqali
BOG'LANISH FAQAT TELEGRAM ORQALI! Telefon qilinganda yoki sms yuborilganda javob bermaslik ehtimoli yuqori

Qolgan sinf namunalari va boshqa hujjatlar bilan telegram kanalimiz yoki web saytda tanishingiz mumkin.

Telegram kanal: @uzmaktab
Web sayt: www.hasanboy.uz

* paynet telefon raqamiga emas

hasanboy.uz